

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE
OLIY TA'LIM MUASSASASI**



**07.00.01 – O'ZBEKISTON TARIXI IXTISOSLIGI BO'YICHA TAYANCH
DOKTORANTURAGA (PhD) KIRISH SINOVLARI UCHUN
MUTAXASSISLIK FANIDAN IMTIHON
DASTURI**

Namangan – 2025

Annotatsiya:

Dastur 07.00.01. – “O‘zbekiston tarixi” ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga kiruvchilar uchun O‘zbekiston tarixi fani asosida tuzildi.

Tuzuvchilar:

Mamatov O.V.	–	UBS, Ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri, falsafa fanlari nomzodi, dotsent.
Mansurov U.U.	–	UBS, Ijtimoiy fanlar kafedrası professor v.b., tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov B.Y.	–	UBS, Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Mahmudov M.A.	–	UBS, Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Gulmatov U.X.	–	UBS, Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o‘qituvchisi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Dastur University of Business and Science institutining 2025-yil 31.10 dagi 3-sonli Kengash yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KIRISH

O'zbekiston tarixi – bu xalqimizning qadimiy davrlardan to hozirgi kungacha bo'lgan taraqqiyot yo'lini, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanish bosqichlarini, mustaqillik sari olib borgan kurashlarini o'rganadigan fan hisoblanadi. Bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan islohotlar, tarixiy xotirani tiklash, milliy o'zlikni anglash va ajdodlar merosiga hurmat bilan yondashish jarayonlari bu fan o'rganayotgan masalalarning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

O'zbekiston aholisi sonining ortib borayotgani, ma'naviy va ma'rifiy ehtiyojlarning kengayishi, yosh avlodni tarixiy ong va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni xalqimizning buyuk tarixiy shaxsiyati va boy madaniy merosi bilan tanishtirish bu fan oldiga yangidan-yangi vazifalarni qo'yimoqda. Ayniqsa, mustaqillik yillarida tarixiy adolat tiklanib, uzoq yillar davomida noto'g'ri talqin qilingan tarixiy voqealar va shaxsiyatlarga haqqoniy baho berilishi uchun imkoniyatlar yaratildi. O'zbekiston tarixini chuqur o'rganish orqali biz nafaqat o'tmishimizni bilamiz, balki kelajagimizni bunyod etish yo'lida zarur saboqlarni olamiz. Bu jarayonda tarixiy manbalarni tanqidiy tahlil qilish, arxeologik, etnografik, yozma va og'zaki manbalardan foydalanish hamda tarixiy voqealarga ilmiy yondashuv zarur hisoblanadi.

08.00.01 – O'zbekiston tarixi ixtisosligining vazifasi – tarixiy jarayonlarni tizimli tahlil qilish, milliy davlatchilik asoslarini o'rganish, turli tarixiy davrlarda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotdagi o'zgarishlarni chuqur tahlil etish, tarixiy shaxslar faoliyatini ilmiy asosda baholash, xalqimizning boy merosini saqlash, targ'ib qilish va yosh avlodga yetkazishdan iborat.

Mazkur fan doirasida tayanch doktorantlar quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni egallashlari zarur:

- O'zbekiston hududida qadimgi sivilizatsiyalarning shakllanishi va rivojlanishi;
- Turk xoqonliklari, Temuriylar, Xiva, Buxoro, Qo'qon xonliklarining davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi;
- Chor Rossiyasi va Sovet imperiyasi davrida O'zbekiston tarixida yuz bergan siyosiy, madaniy va demografik o'zgarishlar;
- Mustaqillik yillaridagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning tarixiy ildizlari va natijalari;
- Tarixiy shaxslar, milliy qahramonlar, ma'rifatparvarlar va ularning tarixdagi o'rni;

- O‘zbekistonning yangi davrdagi taraqqiyot strategiyasi va tarixiy merosga asoslangan rivojlanish yo‘li.

Shuningdek, ushbu yo‘nalish bo‘yicha tayanch doktoranturaga kiruvchilar uchun “O‘zbekiston tarixining manbashunosligi”, “Tarixiy geografiya”, “Arxeologiya”, “Etnohistoriya”, “Tarixiy shaxslar va tarixiy tafakkur rivoji” kabi fanlar asosida savollar bazasi shakllantiriladi.

Fan doirasida ilg‘or ilmiy yondashuvlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, arxiv hujjatlari va tarixiy manbalarni tahlil qilish asosida ilmiy izlanishlar olib borilishi talab etiladi. Shu bilan birga, O‘zbekiston tarixini o‘rganishda milliy qadriyatlar, tarixiy ong va mustaqil fikrlash salohiyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston tarixi fani bo‘yicha:

O‘zbekiston tarixining ibtidoiy davri, tosh, mistosh, bronza va ilk temir davri, yuritmizdagi qadimgi makon va manzilgohlar hamda ilk davlatchilik tarixiga oid moddiy va yozma manbalarni bilishi; O‘zbekiston xalqlarining qadimgi va o‘rta asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarixini yaxshi o‘rgangan bo‘lishi; O‘zbekiston xalqlarining qadimda, o‘rta asrlarda, yangi va eng yangi davrda madaniy rivojlanishi tarixini yaxshi bilishi; O‘zbekiston hududida shaharsozlik madaniyati va savdo munosabatlarining vujudga kelish jarayoni, taraqqiyot bosqichlari va asosiy turlarini o‘rgangan bo‘lishi; O‘zbekistonda savdo va tadbirkorlik munosabatlarining rivojlanishi haqida guvohlik beruvchi arxiv materiallari, yozma manbalar, davriy nashriyot materiallarini bilishi va ulardan foydalana olishi;

O‘zbekiston hududida qadimgi davrdan yangi davrgacha mavjud bo‘lgan davlatlar tarixi va ulardagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyot bosqichlarini tahlil qila olishi; Qadimgi va o‘rta asrlarda hamda mustamlaka va sovet totalitarizmi tuzimi sharoitida mustaqillik va ozodlik uchun olib borilgan kurashlar tarixini bilishi; Sovet tuzumi qulashining tarixiy qonuniyat ekanligi haqida tasavvurga ega bo‘lishi; O‘zbekiston Respublikasi milliy mustaqilligi e‘lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyatini anglab yetgan bo‘lishi, O‘zbekiston mustaqilligining xalqimiz tarixiy taraqqiyotidagi tarixiy ahamiyati tahlil qila olishi; mustaqillik, ozodlik va erkni himoya qilish zarurati haqida keng tasavvurga ega bo‘lishi, O‘zbekiston mustaqilligi yo‘lidagi kurashlarning asosiy bosqichlarini anglab yetgan bo‘lishi, O‘zbekiston xalqlarining mustaqillik uchun kurashini bayon etuvchi yozma manbalarni tadqiq qilgan bo‘lishi; shuningdek, mustaqillik sharoitida O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tilishi, savdo va tadbirkorlikning rivojlanishi haqida keng ma’lumotga ega bo‘lishi; O‘zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosati haqida chuqur bilimga ega bo‘lishi; mustaqillik sharoitida O‘zbekiston xalqlari madaniy taraqqiyotining asosiy

yo‘nalishlari, maqsad va vazifalari haqida tasavvurga ega bo‘lishi; mustaqillik yillarida aholining ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlar, iqtisodiy hayotning yuksalib borayotganligi, qo‘shma korxonalar, madaniyat va sport sohasidagi yutuqlarni chuqur bilishi va tahlil qila olishi kerak. Barcha turdagi manbalar, shuningdek, o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha arxiv materiallarini o‘rgangan bo‘lishi; arxiv materiallari bilan ishlashni bilishi va ulardan foydalana olishi kerak.

Ilmiy tadqiqot uchun mavzu tanlash, reja (ish rejasi) tuzish, ilmiy, tarixiy adabiyotlarni o‘rganish, arxiv manbalari, davriy matbuot materiallarini yig‘ish, qayta ishlash, muzey manbalari, kutubxona fondlaridan foydalanish bilan bog‘liq jarayonlar muhim ahamiyatga molik hisoblanadi. O‘zbekiston tarixi boyicha ilmiy tadqiqot olib borishda ko‘chirmalarning turli shakllari, jadvallar, chizmalar, tarixiy geografik, tarixiy atamalar, tushunchalar, qisqartmalar va izohlardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari, ilmiy maqola, risola, monografiya yozish uslubi, o‘quv qo‘llanma, darslik to‘g‘risidagi tushunchalar ham muhim hisoblanadi.

UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE TAYANCH
DOKTORANTURA IXTISOSLIKLARIGA KIRISH SINOVLARI UCHUN
MUTAXASSISLIK FANIDAN TALABGORLARNING BILIMLARINI
BAHOLASH MEZONI

Sinov topshirish shakli	Yozma / og'zaki
Ajratilgan vaqt	120 daqiqa
Savollar soni	5
Har bir savol uchun belgilangan ball	20
Eng yuqori ball	100

Malakaviy imtihon sinovi yozma (**DsC uchun og'zaki**) shaklda o'tkazilishi belgilangan bo'lib, 100 ballik mezon asosida baholanadi.

Har qaysi savolning javobi quyidagicha baholanadi:

Har bir savol uchun ball	Javobga qo'yiladigan talablar
86-100	Qo'yilgan savolga to'liq javob bergan. Nazariy jihatlarini yoritishda xatolik va chalkashlikka yo'l qo'yilmagan. Mustaqil ravishda mushohada yuritib bayon etilgan. Amaliy misollar bilan asoslab bayon etilgan. Xulosani to'g'ri shakllantirgan. Fikrlar erkin bayon etilgan.
71-85	Savolning mohiyatini tushungan. Javobni yoritib bera olgan. Amaliy misollar keltirilgan. Tasavvurga ega. Qisqacha xulosa bergan. Fikrlarni sodda bayon etgan.
55-70	Savol mohiyatini tushungan. Javob yoritilgan, qisqa shaklda. Misollar bilan asoslanmagan. Xulosa qilingan.
0-54	Savolning ayrim elementlarigina yoritilgan, yoki umuman yoritilmagan. Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas.

**07.00.01 – “O‘ZBEKISTON TARIXI” IXTISOSLIGI BO‘YICHA
MUTAXASSISLIK SAVOLLAR NAMUNASI**

Qadimgi davr tarixi.

1. Qadimgi tosh davri madaniyati nima? Qadimgi tosh davri madaniyat izlari O‘zbekiston hududida ham uchraydimi? Izohlab bering
2. Inson hayotida olovning o‘rni? Aqliy, diniy...
3. Nima sababdan mayda tosh qurollarini yasash zarurati tug‘ildi?
4. Ishlab chiqarish xo‘jaligining Turon usuli va mintaqaga xos jihatlari qanday bo‘lgan? Yaqin sharq mintaqasidan farqli jihatlarga izoh bering.
5. Insoniyatning ilk diniy qarashlari: afzalliklari va muammolari.
6. Makedoniyalik Aleksandrning Turon zaminiga qilgan harbiy harakat-laridagi kamchiliklarini aytib bering.
7. Mehnat taqsimotini keltirib chiqargan omillar.
8. Qadimgi davr odamlarida san‘atning rivojlanishi.
9. Eng qadimgi davr odamlari xo‘jaligida makonlarning tutgan o‘rnini yoritib bering.
10. Qadimgi Turondagi ilk ijtimoiy munosabatlarni qaysi asrlar orqali bilish mumkin? Ularda qanday ijtimoiy tabaqalar keltirib chiqargan?
11. Shaharlarning vujudga kelish omillari.
12. Qadimgi Turonda ilk davlatchilik ko‘rinishlari va davlat boshqaruvida ananalarning davomiyligi.
13. Xorazm makedoniyalik Aleksandr yurishlari davrida qanday asosda o‘zining mustaqilligini saqlab qola olgan?
14. Kushon va Qang‘ madaniyatlaridagi o‘xshash jihatlar.
15. Turk xoqonligi davridagi siyosiy, ijtimoiy munosabatlar.
16. Buyuk ipak yo‘lining ilk o‘rta asrlar taraqqiyotidagi o‘rni.
17. Arab xalifaligining Turonga bosqinchiligi, uning siyosiy va ma‘naviy oqibatlari.
18. Ilk o‘rta asrlarda xalqlarning Buyuk ko‘chishi va uning mintaq (Turon)dagi davlatchilik va etnik jarayonlarga ta’siri
19. Qang‘lilarning mintaqadagi siyosiy va etnik jarayonlarga ta’siri
20. G‘arbiy Turk xoqonligining mahalliy boshqaruvga ta’siri va islohatlar o‘tkazish sabablari

O‘rta asrlar davri.

1. Arablar bosqini istilomi yoki fath? (Har ikki holat bo‘yicha mavjud qarashlar va o‘z munosabatingizni bildiring).
2. Arablarga qarshi milliy-ozodlik harakatlari. Muqanna harakati: milliy ozodlik harakati deyish uchun asoslarni keltiring va tahlil qiling.

3. Arablar hukmronligi davrida diniy siyosat: uning nazariy jihatlar va amaldagi holatini ko'rsating.

4. Somoniylar sulolasi hukmdorlari Arab xalifaligidan mustaqil boshqarganmi? O'zbek davlatining mustaqilligini ifoda etuvchi belgilar va ularning Somoniylar davriga nisbatan tatbiqi.

5. Mahmud G'aznaviy Xorazm va Surxondaryo (Termiz, Chag'oniyon yerlari) hududlari uchun qanday hukmdor edi: istilochimi yoki saltanat boshlig'i.

6. Qoraxoniylar sulolasining hokimiyatga kelishi: Sharqiy va G'arbiy Qoraxoniylar. Xoqoniya sulolasining eng islohotchi hukmdorini ajratib ko'rsating.

7. Xorazmshoh Otsiz va Sulton Sanjar munosabatlarining tarixiy ahamiyati.

8. IX – XII asrlarda ayol, davlat va jamiyat: umumiy holat va o'ziga xosliklar (shariat me'yorlaridagi ayol mavqeyi va jamiyatdagi aniq holat to'g'risida fikrlaringiz).

9. Birinchi Renessans davri ilmiy markazlari. Taraqqiyotga yetaklagan omillar va Renessansning to'xtashi faqat mo'g'ullar istilosi bilan bog'liq edimi?

10. IX – XII asrlarda davlatchilik rivojidadagi vazirlarning o'rni: ijobiy va salbiy holatlar (Somoniylar va xorazmshohlar davridagi vazirlar faoliyatini qiyosiy tahlili).

11. IX – XII asrlarda Turon hududida hunarmandchilik turlari: aynan mintaqaga xos hunar turlari qaysilar va ularda ishlab chiqarilgan eksport mahsulotlari.

12. Chingizxon va Xorazmshoh Muhammad munosabatlarining yomonlashuvida O'tror voqeasi: mavjud qarashlar va ularga munosabatingiz.

13. A'louddin Muhammadning tashqi siyosatida saltanatchilik g'oyasi nimalarda ifodalanadi.

14. Mo'g'ullar istilosi davrida shaharlar: tanazzul va qayta tiklanish.

15. Ikkinchi Renessansning omillari, ilm-fan rivojining sabablari.

16. Amir Temur va Yildirim Boyazid o'rtasidagi harbiy to'qnashuv nimalarni o'zgartirdi?

17. Amir Temurning qudrati nimada?

18. Muhammad Shayboniyxon Turkistonda jarayonlarni o'zgartirib yuborgan siyosiy yetakchimi?

19. Shayboniylar sulolasi hukmronligini ta'minlashda Ubaydullaxonning hissasi qay darajada bo'ldi?

20. Abdullaxon II ning faol ichki va tashqi siyosati Shayboniylar hukmronligini saqlab qola olmaganligining sabablari nimada, deb o'ylaysiz.

21. Ashtarxoniylar boshqaruvining zaif halqalari nimalarda ko'rinadi?

22. Ubaydullaxon islohotchi hukmdormi?

23. XVIII asrning birinchi yarmidagi siyosiy boshboshdoqlikning asl sabablari nimalarda, deb o'ylaysiz.

24. Mangʻit urugʻi vakillarining hokimiyat tepasiga kelishi tarixiy zaruratmi yoki bir tasodifiy holmi?

25. Shohmurod darveshona hayot kechirgan hukmdormi yoki juda mohir siyosatchi?

26. XVIII asrning ikkinchi yarmida dinning nufuzi tushib ketishini qanday sharhlaysiz.

27. XVI-XIX asrning birinchi yarmida Turkistonning iqtisodiy qoloqligining mohiyati va sabablarini siz qanday tushuntirgan boʻlar edingiz.

28. Qoʻqon adabiy muhitining vujudga kelishining sabablari nimada?

29. Turkiston xonliklari nima uchun Rossiya imperiyasining bosqinchiligiga qarshi birlasha olmadi yoki birlashishga harakat qilganmi?

Yangi davr tarixi.

1. Bolsheviklar uyushtirgan qirgʻinlarning tabiati
2. Rossiya imperiyasining Turkistonda olib borgan taʼlim siyosatini qanday baholaysiz?
3. 1898-yildagi Dukshi Eshon qoʻzgʻoloni kimga va nimaga qarshi qaratilgan edi?
5. 1892-yildagi Toshkentdagi “Vabo isyoni”ning asosiy sababi nimada edi?
6. 1916-yil xalq qoʻzgʻoloni nima sababdan boshlangan?
7. Turkiston muxtoriyatining tashkil topishi va tor-mor etilishiga baho bering?
8. Turkiston ASSRni tashkil etishdan koʻzlangan maqsad nima?
9. Oʻrta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish siyosatiga baho bering.
10. Turkistonda sovet rejimiga qarshi qurolli harakatning sabablari va mohiyati (1918-1935-yillar).
11. Turkistondagi ocharchilik va uning oqibatlari (1918-1924).
12. Sovet xokimiyatining taʼlimdagi siyosati (1918-1924).
13. Oʻzbekiston SSRda siyosiy qatagʻonlarning boshlanishi.
14. Kollektivlashtirish va quloqlashtirish siyosatining mazmun hamda mohiyati.
15. Sovet davlati diniy siyosatining mohiyati va oqibatlari.
16. Ikkinchi jahon urushi yillarida oʻzbek xalqining front ortidagi mehnati.
17. Ikkinchi jahon urushida oʻzbek jangchilarining jasorati.
18. Urush arafasida Oʻzbekiston SSR sanoati qanday ahvolda edi?
19. Paxta yakkahokimligi va uning salbiy oqibatlari (1946-1985-yillar).
20. Sovet imperiyasi davrida Qoraqalpogʻistonning iqtisodiy va ijtimoiy hayoti
21. Orol fojeasining kelib chiqish sabablari nimada?
22. 1950-1960-yillarda milliy ziyolilarni qatagʻon qilinishi.
23. 1970-1990 yllarda Oʻzbekiston SSRda ijtimoiy-iqtisodiy hayot.
24. Paxta ishi va uning oqibatlari.
25. Oʻzbekiston SSRda oliy taʼlim tizimi va tarixchilarning tayyorlanishi.

26. 1990-yilda ijtimoiy-siyosiy inqirozning kuchayishi sabablari nima?

Eng yangi davr tarixi.

1. Mustaqillik arafasida O'zbekistonda kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar: ko'ppartiyaviylik tizimiga o'tishning ilk bosqichi.
2. O'zbekistonda siyosiy islohotlar: bosqichlari va xususiyatlari.
3. Mustaqil O'zbekistonda madaniy hayot: milliy madaniyatni qayta tiklash muammolari
4. O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning uchinchi renessans haqidagi fikr-mulohazalari
5. Birinchi Prezident I.Karimov davrida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va muammolar.
6. O'zbekistonda huquqiy davlat va demokratik jamiyat asoslarini shakllantirish muammolari.
7. O'zbekistonda mustaqillik yillarida tarix fani: yo'nalishlar va muammolar.
8. O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlarga a'zoligi: yutuqlar va muammolar.
9. O'zbekistonda milliy xavfsizlik va mudofaa tizimi.
10. Mustaqillik davrida O'zbekistonda diniy qadriyatlarning tiklanishi. Din va davlat o'rtasidagi munosabat.
11. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining tashkil topishi va unda O'zbekistonning ishtiroki.
12. O'zbekistonning Shanxay hamkorlik tashkilotidagi o'rni va roli
13. O'zbekistonning taraqqiy etgan mamlakatlar bilan aloqalari.
14. O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganishning uslubiy va manbaviy asoslari.
15. O'zbekistonning eng yangi tarixini davrlashtirish masalalari.
16. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi va uning ahamiyati. Konstitutsiyaga kiritilgan so'nggi o'zgartirishlar.
17. O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlariga o'tish jarayonida amalga oshirilgan islohotlar: yo'nalishlar va natijalar.
18. O'zbekistonda parlamentarizmning rivojlanishi: ikki palatali parlamentga o'tilishi
19. Respublikada o'z o'zini boshqarish organlari va Yangi O'zbekiston davridagi o'zgarishlar.
20. O'zbekistonda siyosiy partiyalar faoliyati: saylov jarayonidagi tajribalar
21. O'tish davrida ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari. Yangi O'zbekiston – yangicha ijtimoiy siyosat.

22. O'zbekistonda millatlararo totuvlikning ta'minlanishi. Milliy-madaniy markazlar faoliyati.
23. O'zbekistonning geosiyosiy va geoiqtisodiy imkoniyatlari: yutuqlar va o'z yechimini kutayotgan muammolar
24. O'zbekistonda ko'p ukladli iqtisodiyot: xususiylashtirish jarayonidagi yutuqlar va muammolar.
25. Mustaqillik yillarida ilm-fan: rivojlanish bosqichlari va ziddiyatlar
26. O'zbekistonda jismoniy tarbiya, sport va sog'lom turmush tarzini rivojlantirish siyosati.
27. O'zbekistonning BMT ga a'zo bo'lishi va uning tarixiy ahamiyati.
28. Markaziy Osiyo mintaqasida integratsiyalashuv muammolari.
29. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi.
30. Sh. Mirziyoyevning Markaziy Osiyo mintaqasida o'zaro hamkorlikka doir tashabbuslari
31. Buyuk ipak yo'lining tiklanishining bugungi kundagi ahamiyati.
32. O'zbekistonning Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni o'rnatish borasida amalga oshirayotgan siyosati.
33. Markaziy Osiyoda ekologik muammolar
34. Hozirgi dunyoning mafkuraviy manzarasi va O'zbekistonda mafkuraviy muammolar.
35. O'zbekistonning me'moriy obidalarini saqlash, qayta tiklash va ta'mirlash jarayonlari
36. O'zbekistondagi migratsion jarayonlar: mehnat muhojirligining omillari va muammolari.
37. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashini tashkil qilish" to'g'risidagi qarori: maqsad va vazifalari
38. O'zbekiston Respublikasining MDH doirasidagi faoliyati
39. 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining asosiy yo'nalishlari va ularning mohiyati.
40. O'zbekiston Qurolli kuchlarining shakllanishi. Harbiy doktrina.
41. O'zbekiston moliya va bank tizimidagi islohotlarning yo'nalishlari va natijalari.
42. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish imkoniyatlari va istiqbollari.
43. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning "o'zbek modeli" modeli ishlab chiqilishi, uning yuqori va kamchiliklari.
44. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda demografik jarayonlar va ularning ijtimoiy siyosatga ta'siri.

45. O‘zbekistonda oliy ta’limni rivojlantirish muammolari va istiqbollari.
46. O‘zbekistonda ishsizlik va yoshlar muammolari, ularni hal qilish istiqbollari.
47. Zamonaviy o‘zbek madaniyati rivojida milliylik va taqlidchilik muammolari.
48. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik siyosiy tizimini shakllantirish muammolari.
49. O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy harakatlar va so‘z erkinligi muammolarini hal etishdagi yangi qadamlar.
50. O‘zbekiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ikki tomonlama aloqalarning o‘rni.

TAVSIYA ETILAYOTGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi / <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr. O‘RQ-637-son. / <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi” PF-4947-sonli farmoni // <https://lex.uz/docs/3107036>
4. 2022- yil 28-yanvarda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026- yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-60-sonli Farmoni / <https://lex.uz/docs/5841063#5844198>.
5. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va farovonligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 48 b.
6. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
7. Mirziyoyev Sh. M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 507 b.
8. Mirziyoyev Sh. M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 400 b.
9. Mirziyoyev Sh. M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – 400 b.
10. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 416 b.
11. Alimardonov O. Q. O‘zbekistonning eng yangi tarixi: tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishlari (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: FAST SUPPORT AND RESULT, 2023. – 244 b.
12. Yermetov A. O‘zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarda ichki ishlar organlarining ishtiroki (1917-1945-yillar). O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: “Navo‘z” nashriyoti, 2020. – 224 b.
13. Insopov A. A. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllanishi va rivojlanish tarixi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Universitet. 2023. – 194 b.
14. Haydarov M. O‘zbekistonda sovet davlat boshqaruv tizimi: bosqichlari